



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

767-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024 yil 27 dekabdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabdagi PQ–413-son qarori ijrosi haqida”gi 639-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabdagi PQ–413-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 27 dekabdagi 639-6-0-Q/24 –sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Namangan viloyat hokimining 2024 yil 27 dekabdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabdagi PQ–413-son qarori ijrosi haqida”gi 639-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabdagi PQ–413-sonli qarori bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tuzilmalariga – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri taqdimnomasiga binoan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining va viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri, viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i lavozimi;

tuman (Quvasoy shahar) hokimliklari tuzilmalariga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining va viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri, viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i taqdimnomasiga binoan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i lavozimi kiritilganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari tuzilmalaridagi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi;

tuman (Quvasoy shahar) hokimliklari tuzilmasidagi – hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tuzilmasidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri va viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari boshlig‘i hamda tumanlar (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlari boshlig‘i lavozimlari tugatilganligi;

bunda vazirlikning mazkur bandga muvofiq tugatilayotgan shtat birliklari hisobiga uning hududiy bo‘linmalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga mas‘ul xodim lavozimi joriy etilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining 2024-yil 10-dekabrda 592-6-0-Q/24-sonli qarori bilan viloyat hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasidagi “Hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari” bloki “Hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i” bloki bilan almashtirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-dekabrda PQ–413-son qarorida belgilangan vazifalar asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov